



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ROSSIYA IMPERIYASI IQTISODIY SIYOSATINING TURKISTON O'LKASI TUB AHOLISI HAYOTIGA TA'SIRI

Buriyev Zavqiddin Toshpo'lat o'g'li
Buxoro davlat universiteti, doktorant (DSc), (PhD)

Annotatsiya

Rossiyaning hukmron siyosiy va harbiy doiralari Kaspiyorti va Yettisuv viloyatida mustamlakachilik, buyukdavlatchilik hukmronligini qaror toptirar, harbiy yurishlar vositasida viloyatda imperiya protektoratini o'rnatar ekanlar, bu mintakada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imperiya manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston general-gubernatorligi, Yettisuv viloyati, Kaspiyorti viloyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo-sotiqning rivojlanishi.

ВЛИЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ НА ЖИЗНЬ КОРЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА

Буриев Завкиддин Тошпулат угли
Бухарский государственный университет, докторант (DSc), (PhD)

Аннотация

Правящие политические и военные круги России установили в Прикаспийском регионе господство колониализма и великодержавия, установили имперский протекторат в регионе путем военных походов, пытались подчинить уровень социально-экономического развития этого региона интересы империи.

Ключевые слова: Российская империя, Туркестанское генерал-губернаторство, Прикаспий, социально-экономическая жизнь, развитие торговли.

THE IMPACT OF THE ECONOMIC POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE ON THE LIFE OF THE ORIGINAL POPULATION OF THE TURKESTAN

Buriyev Zavqiddin Toshpo'lat o'g'li
Bukhara State University, Doctoral Student (DSc), (PhD)

Abstract

The ruling political and military circles of Russia established the rule of colonialism and great power in the Caspian region, established the imperial protectorate in the region through military campaigns, and tried to subordinate the level of socio-economic development in this region to the interests of the empire.

Keywords: Russian Empire, Governorate General of Turkestan, Caspian Region, socio-economic life, development of trade.

Mustamlakachilik, xususan, eng avvalo hukmron doiralarning, armiyaning, metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarning istilo etilgan mamlakat, hatto dominion tub aholisiga nisbatan zo'rligini bildiradi. Binobarin, harbiy, siyosiy, xo'jalik, mafkuraviy zo'rlik biron-bir mamlakatdagi mustamlakachilik siyosati, amaliyoti sifatida barcha G'arb va Sharq metropoliyalariga xos bo'lib, naqd moddiy boyliklarni talon-taroj qilish, mustamlakaning tabiiy, ishlab chiqarish, mehnat zahiralaridan, madaniy salohiyatidan foydalanishdan iborat edi.

Biroq Rossiyaning hukmron siyosiy va harbiy doiralari Turkistonda, jumladan, Kaspiyorti viloyatida mustamlakachilik, buyukdavlatchilik hukmronligini qaror toptirar, harbiy yurishlar vositasida viloyatda imperiya protektoratini o'rnatar ekanlar, bu mintaqada ijtimoiy rivojlanish darajasi bo'yicha istilochilardan qolishmaydigangina emas, balki ma'naviy, madaniy rivojlanish tajribasi bo'yicha ulardan ustun ham turadigan tub xalqlar vaqt yetilib, o'zlariga qarshi kurashishini yaxshi anglashar edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bizning fikrimizcha, tashqi omillar — Hindistonda va qisman Afg'onistonda hukmron bo'lgan Angliya bilan siyosiy, diplomatik raqobat, Xitoyning Turkiston bilan chegaradosh rayonlarda vaqti-vaqti bilan amalga oshiradigan harbiy harakatlari, Eron bilan munosabatlarning beqarorligi — Rossiyaning

mintaqadagi siyosatiga ta'sir qilgan. Biroq bundan ham ko'proq Rossiya imperiyasi yuqori doiralarning strategik maqsadlari — Shimoliy Eronni Rossiyaning mustamlakasiga aylantirish istiqboli, Hindistonga ehtimol tutilgan harbiy yurish va hokazolar muhim rol o'ynagan.

Boshqacha aytganda, Rossiyaning strategik maqsadlari va ichki manfaatlari Turkiston hamda Dasht o'lkalarining tabiiy va ishlab chiqarish boyliklaridan, arzon mehnat zahiralardan metropoliya sanoati manfaatlari yo'lida iloji boricha faolroq foydalanishga qaratilgan edi. 50 ming kishilik rus armiyasi, ming-minglab mustamlakachi xizmatchilar va politsiyachilar mavjud bo'lgani holda, bu yerga yuz minglab kazaklarni, rus krestyanlarini va shahar kambag'allarini ko'chib kelishini ta'minlab turganligi ham bejiz emas edi.

NATIJALAR TAHLILI

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston va Dasht general-gubernatorliklariga o'n minglab Volgabo'yi nemislari ko'chirildi. Oliy pravoslav ruhoniylari qistovi bo'yicha nasroniy mazhabchilari (staroobryadchilar, molokanlar va boshqalar) ham metropoliyadan chiqarib yuborildi. Lekin kazaklar rus harbiy-politsiya ma'muriyatidan so'ng mustamlakachilar tayanchi, ifodachisi sifatida tub xalqlarni bevosita ekspluatatsiya qiluvchi kuch bo'lib xizmat qilishi lozim edi.

Mintaqaga istilo paytidayoq ko'chirib keltirilgan dastlabki ming-minglab kazaklar va ruslarni joylashtirish, ularni haydalma yerlar, yaylovlar hamda farovon yashash vositalari bilan ta'minlash bilangina qolmay, balki katta soliq imtiyozlari, fuqarolik yengilliklari va siyosiy ustunliklarni ham berish zarur edi. Bularning barchasi asta-sekin tub aholi hisobiga amalga oshirildi. Chunonchi, mustamlakachilikning ilk kunlaridanoq yerni, qishloq xo'jaligi mehnat qurollarini va qoramolni harbiy-politsiya usullari bilan musodara etish, tub qishloq aholisiga zulm o'tkazish bo'yicha qo'pol harakatlar amalga oshirilgan edi. Rus dehqonlari va kazaklarni imkon qadar ko'proq yer-mulk bilan ta'minlash uchun ko'chmanchi mintaqalarning katta qismi musodara qilinardi, ajratib olinardi va bu jarayon tobora kengayib borardi.

MUHOKAMA

Turkiston ma'muriyatining tub aholiga nisbatan buyukdavlatchilik-shovinistik munosabati keyinchalik soliq va o'lponlarni muntazam oshirib borishda, turli-tuman bir martalik yig'implarni joriy etishda, Birinchi jahon urushi davrida esa tub aholiga yalpi harbiy soliqdan tashqari qishloq aholisidan qoramol, arava, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, hatto o'tovlarni ham zo'rlik bilan tortib olishda yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Masalan, Birinchi jahon urushi yillarida g'arbiy frontdagi rus armiyasi ehtiyojlari uchun 300 ming pud g'isht, 70 ming ot, deyarli 13 ming tuya, 270 arava va 13 441 o'tov olib ketilgan [1].

Turkiston ma'muriyati Kaspiyorti viloyatida butun mustamlaka davri davomida uzoqni ko'zlovchi niyatlarda vaqf mulkini, ayniqsa vaqf yerlarini musodara etish va qisqartirish choralarini ko'rdi. Vaqf mulkini tashkil etuvchi yerlar, savdo do'konlari, bog'lar, tegirmonlar va hokazolardan olinadigan daromad hisobidan madrasalar, maktablar, katta bo'lmagan qishloqlarda esa masjidlar ta'minlanardi. Zero, yuzaki qaraganda mustamlakachi ma'muriyatning Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar manfaatlari yo'lida amalga oshirilgandek bo'lib ko'ringan bu choralar aslida islom ta'sirini kamaytirish, musulmon muassasalari rolini zaiflashtirish siyosatining tarkibiy va eng asosiy qismi bo'lib qoldi.

Vaqf mulkining tortib olinishi, uning miqdorining zo'rlik bilan kamaytirib borilishi mahalliy dehqonlar orasida yersizlar va ishsizlar sonining oshishiga olib keldi. Natijada ular ko'pincha batraklar safiga qo'shilib ketardi. Umuman olganda, rus krestyanlariga nisbatan mahalliy dehqonlar ekinga yaroqli yer bilan ancha kam ta'minlangan edi.

Imperiya hukmron doiralarning Turkistonning tub qishloq aholisini boshqa xomashyolar singari past narxda sotib olinadigan paxta yetishtirishga majbur qilish hisobiga Rossiya to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga intilishi natijasida 1867–1916-yillar oralig'ida Rossiya sanoati qayta ishlaydigan paxtaning umumiy hajmida Turkiston hissasi 6,6 foizdan 70 foizga ortdi [2]. Bu yillar ichida Turkistondan metropoliyaga tashib ketiladigan paxta natural ifodada 639 193 puddan [3] 20 million pudga [4], ya'ni deyarli 30 barobar ko'paydi.

Turkistonda paxta yetishtirish uchun ajratilgan yerlarning maydoni 1870–1916-yillarda 54 ming desyatınadan deyarli 681 ming desyatınagacha oshdi [5]. Shu munosabat bilan o'lkada g'alla yetishtirish yil sayin kamaydi. Rossiyadan g'allani ulgurji yetkazib beruvchilar bu ahvoldan foydalanib, bug'doy bilan paxta narxidagi nisbatning buzilishi hisobiga katta daromad oldilar. Chunonchi, 1 pud paxta 8,5 rubl turgani holda, 1 pud bug'doy 7 rubl va undan ortiq baholangan, vaholanki ularni yetishtirish uchun sarflanadigan mehnat va mablag' butunlay turlicha edi [6].

Krasnovodskdan Samarqandgacha, Orenburgdan Toshkentgacha, so'ng Turkiston paxtasining 60 foizi yetishtiriladigan Farg'ona vodiysida temir yo'l ishga tushirilgach, bu nisbatning buzilishi yanada kuchaydi. Paxtachilik ko'lamini kengayishi Turkiston, jumladan, Kaspiyorti viloyatida don yetishtirishning kamayishi hamda o'lkaga Rossiyada ishlab chiqarilgan keng iste'mol mollari keltirishning ko'payishi bilan birga kechdi. Ayni paytda zakot saqlanib qolgan holda hunarmandchilik solig'ining joriy etilishi an'anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishining siqib chiqarilishiga olib keldi va bu og'irlik tub aholi yelkasiga tushdi.

Tub aholining uchdan ikki qismidan ortig'ini qishloq aholisi tashkil qilgani bois shuni ta'kidlash mumkin, imperiya senatori F.K. Girs taklifi asosida mustamlakachilar tomonidan kiritilgan har bir volostdan pul shaklida davlat yer solig'i olish [7], yer rentasi (xiroj) o'rniga dehqonchilik daromadidan olinadigan soliqni joriy etish, metropoliyadan keltiriladigan ip-gazlama va matolar narxining nazoratsiz oshib borishi, paxta tolasiga esa me'yorlangan baho belgilanishi, irrigatsiya tarmoqlarini saqlash uchun vaqti-vaqti bilan (1904 hamda 1914–1916-yillarda) soliq yig'ilishi, harbiy soliq singari yangi tartib-qoidalar ham mahalliy aholi zimmasiga yuklatilgan edi.

Mustamlakachi ma'muriyat tub qishloq aholisidan olinadigan soliqlarni qanday sur'atlarda oshirib borgani shundan ham ko'rinadiki, 1917-yilga kelib soliqlar miqdori (pul bilan ifodalanganda) 1869-yildagiga nisbatan deyarli 20 barobar ortgan [8].

Imperiya hukmron hamda sanoat-moliya doiralarining o'lkada va viloyatlarda tabiiy hamda mehnat zahiralaridan foydalanishga qaratilgan ijtimoiy siyosati tub aholi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mustamlakachilar Turkistondagi sanoat ishlab chiqarishiga aralashuvni, ayniqsa, aroq va vino ishlab chiqaradigan zavodlarni qurish orqali kuchaytirganlari diqqatni tortadi. Bu o'lkada general-gubernatorlik tashkil etilishidan oldin, 1867-yil mart oyida rus savdogarlari I. Pervushkin, A. Xrenikov hamda 1865-yilda kelgan savdogar-tadbirkor D. Filatov spirtli ichimliklar ishlab chiqaradigan zavodlar tashkil etgan edi.

Ichimlik sotuvchi do'konlarning ochilishi, vino-arop zavodlarining qurilishi, ichkilikbozlikning Rossiya mustamlakachiligi bilan bog'liq boshqa illatlar bilan birga yoyilishi musulmon aholining qahrg'azabini qo'zg'atdi. Xo'janddagi vino-arop zavodlaridan biri u yerga bostirib borgan Qo'qon xonligi qo'shini tomonidan yoqib yuborilgani tasodif emas [9]. Lekin mustamlaka ma'muriyati ko'proq rossiyalik va qisman xorijiy sanoatchilar bilan qishloq xo'jaligi xomashyosi (paxta, pilla)ni, chorvachilik va bog'dorchilik mahsulotlarini qayta ishlash, yer osti boyliklarini qazib chiqarish bo'yicha korxonalar ochishga ko'maklashdi. Xomashyoni Turkistondan, Kaspiyorti viloyatidan metropoliyaga tez va tejamli tashib ketish, o'lkaga Rossiya tovarlarini olib kelishni ancha ko'paytirish maqsadida nisbatan qisqa muddat ichida temir yo'l o'tkazildi. To'g'ri, bunda chorizm Turkistonga, jumladan, Kaspiyorti viloyatiga va boshqa viloyatlarga qo'shinlarni hamda qurol-aslahani darhol yetkazib keltirish masalasiga ham birinchi darajali e'tibor bergan.

Temir yo'l stansiyalari, razyezdlar yaqinida posyolkalar qurish to'g'risida imperiya hukumati va mustamlakachi ma'muriyat qarorlari [10] avvalgi sahifalarda tavsiflab o'tilgan bo'lib, ularga muvofiq mahalliy aholi yo'latilmagan. Biroq iqlim sharoitlari va boshqa sabablarga ko'ra ayrim, ayniqsa, dasht va suvsiz joylardan o'tgan temir yo'llarda ma'muriyat tubjoy aholi orasidan ishchilarni yollashga majbur bo'lgan edi. Bu amaliyotdan harbiy temir yo'l batalyonlari avval yollanma ishchilardan ajratilgan, so'ng esa umuman o'lkadan va Kaspiyorti viloyatidan olib ketilgan. Bundan 1906–1910-yillar oralig'ida keng foydalanilgan. Boz ustiga Namangan va Namangan–Andijon–Jalolobod yo'llaridan foydalanishda yollanma ishchilarsiz ish yuritish qiyin edi. Viloyat ma'muriyati uchun bu juda foydali va tejamli bo'lgan, chunki mahalliy millat ishchilari mehnatiga rus ishchilariga qaraganda ancha kam haq to'langan. Shunday bo'lsa-da, imperiya hukmron doiralarining buyukdavlatchilik kayfiyati shu qadar kuchli ediki, 1911-yilga kelib hukumat huzuridagi maxsus kengash O'rta Osiyo temir yo'lidagi barcha tub millat ishchilarini ikki yil ichida ruslar, beloruslar va ukrainlar bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi [11]. Biroq Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya ishchilari safarbar etilgani bois yana mahalliy ishchilarni temir yo'l sohalariga ishga qabul qilish davom etdi.

Zavod va fabrikalar qurilishidagi vaziyatni esa rasmiy imtiyozlarga ega bo'lgan va hokimiyat yordamidan foydalangan Rossiya firmalari hamda shirkatlari belgilab berardi. Bu, ayniqsa, paxta tayyorlash, paxtani qayta ishlash, pillani qayta ishlash, moy ishlab chiqarish va ko'ncilik sanoatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu tarmoqlarda jumladan I. Pervushin, N. Ulyanov, I. Pisarevskiy, M. Xludov, D. Filatov, A. Abramov, S. Morozov, A. Kudrin singari ko'plab rus hamda aka-uka Vadyaevlar, Potelyaxov, Simxaev kabi yahudiy kapitalistlari ustun mavqeni egallagan edilar. Ayni mahalda, tub aholi badavlat

qatlamlariga azaldan xos bo'lgan tadbirkorlik an'analari saqlanib qolganligi tufayli uning ko'plab vakillari ma'muriyat to'siqlari hamda Rossiya sanoatchilari va bank sohiblarining qattiq raqobatini yengib, ko'psonli korxonalarining egasi bo'la oldilar. Masalan, 1912-yilda Farg'ona oblastidagi 160 paxta tozalash zavodidan 106 tasi mahalliy millat sanoatchilariga qarashli hamda Buxoro yahudiylari firmalari bilan hamkorlikda qurilgan edi [12]. Shundan 7 ta paxta tozalash zavodi Ahmadbek Temirbekovga, 4 tasi esa Mirkomilboy Mirmo'minboyevga qarashli edi. Ko'plab ko'nychilik zavodlari, pilla quritiladigan va pilla yigiruv fabrikalari, sovun pishiradigan hamda yog' ishlab chiqaradigan korxonalar ham mahalliy millat sanoatchilariga tegishli edi [13].

Shuni alohida qayd etish lozimki, mustamlakachilik sharoitida Rossiyadan nisbatan arzon sanoat buyumlari o'lkaga va viloyatlarga tobora ko'proq keltirilayotgan vaziyatda tub aholi tarixiy xo'jalik an'alarini saqlashga astoydil harakat qilgani tufayli viloyatlarda xalq hunarmandchiligining deyarli barcha turlari va anchagina korxonalari 1917-yilgacha saqlanib qoldi. Masalan, 1916-yilda Farg'ona viloyatida hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan — shoyi to'qish, sandiq yasash, aravasoqlik, temirchilik, qandolatchilik va boshqa korxonalar soni 13 095 ta edi, ular bir yilda 4 mln 536 792 rubl miqdorida mahsulot ishlab chiqargan. Bu korxonalarda 17 514 ishchi mehnat qilgan. Bunday korxonalardan tashqari mazkur oblastda zargarlik, telpakchilik, kulolchilik, ko'nychilik, etikchilik, yog'moy, sovun, bo'yoq ishlab chiqaruvchi korxonalar, nonvoyxonalar, tegirmonlar, juvozlari va boshqa o'rta hamda mayda 19 738 hunarmandchilik korxonalari mavjud edi. Ularda 33 208 hunarmand bir yilda 8 mln 244 488 rubl miqdorida mahsulot ishlab chiqargan. Bu borada Qo'qon va Namangan uyezdlari yetakchi o'rinda bo'lgan [14].

O'zbek va tojik sanoatchilarining ko'pchiligi hamda Buxoro yahudiylari orasidan bo'lgan ayrim sanoatchilar turli yillarda yangi usul maktablari ochishda, milliy-vatanparvarlik gazetalarini chiqarishda moddiy yordam ko'rsatganlar. Qo'qon Muxtoriyati hukumati faoliyatini mablag' bilan ta'minlab turganlar. Shunday insonlardan Mirkomilboy Mirmo'minboyevni, Muhammadrahim Hasanovni, Ahmadbek Temirbekovni, Badal Boykarimboyevni, Yusufboy Matmusaboyevni, Nosirxonto'ra Mirjalilovni, Buxoro yahudiysi R. Potelyaxovni alohida ko'rsatib o'tish darkor.

Ayni mahalda, shuni xolisona ta'kidlash zarurki, Rossiya sanoatchilarining tub aholini ekspluatatsiya qilishga buyukdavlatchilik-shovinistik nuqtayi nazardan yondashuvi ta'siri ostida Buxoro yahudiylari birlashmalari — “Aka-uka Vadyaevlar”, “Yusuf Davidov”, “R. Potelyaxov va Simxaev” savdo uylari hamda mahalliy millat fabrikachilari va zavodchilari ham o'z korxonalarida rus va chet el tadbirkorlari hamda banklariga tegishli zavod-fabrikalarda hukmron bo'lib turgan tartibga amal qildilar — tub aholiga mansub ishchilar mehnatiga haq to'lashda ularni kamsitdilar. Mahalliy aholini nafaqat temir yo'lga, balki ilg'or texnika bilan jihozlangan korxonalarga ham ishga olish taqiqlangani shundan dalolat beradi. Rossiya imperiyasi ma'muriyati tub millatli aholi ko'p bo'lgan joylarda zavodlarni, shu jumladan paxta tozalash zavodlarini qurmaslikni tavsiya etgan.

Zotan, birinchidan, mahalliy mehnatkashlarning asosiy ko'pchiligi sanoat va qurilishda yordamchi hamda malakasiz mehnat bilan band edi; ikkinchidan, umuman olganda, ishchining o'rtacha yillik ish haqi Rossiya imperiyasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 60 foiz kam edi [15], lekin shunda ham tub aholiga mansub ishchilar hajman va mazmunan teng mehnat uchun Rossiyadan ko'chirib keltirilgan ishchilarga nisbatan ikki-uch barobar kam haq olardi. Masalan, rus kon ishchisi bir kunlik ishi uchun o'rtacha 90 tiyin olsa, o'zbek va tojik millatlariga mansub kon ishchisi bor-yo'g'i 30–60 tiyin haq olardi [16]; uchinchidan, Rossiya va chet el kapitalistlariga tegishli ko'plab zavod hamda fabrikalarda mahalliy ishchilarga nisbatan kamsituvchi munosabat mavjud bo'lib, o'lka ma'muriyati bunday holatga yo'l qo'ymas edi [17]; to'rtinchidan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarishdagi jarohatlanish hollari ko'plab sodir bo'lib turardi [18]; beshinchidan, sanoat korxonalarining bor-yo'g'i 22 foizida 8–9 soatlik, 17 foizidan ortig'ida esa 12 soatlik ish kuni joriy etilgan edi. Ayni chog'da xususiy va aksiyadorlik korxonalarining ko'pchiligida, ularning ichki tartib-qoidalarida aytilganidek, ishchilar “o'zlarining kundalik ishlariga bog'liq bo'lmagan holda hafta davomida, o'zlarining eng yaqin boshliqlarining buyrug'iga ko'ra, yakshanba va bayram kunlari, kunduzgi va tungi paytda ish vaqtidan tashqari ishlash majburiyatini bajarishga majbur bo'lganlar” [19]; oltinchidan, Rossiya va chet el sanoatchilarining qo'yilgan kapitaldan imkon qadar ko'proq foyda olishga intilishi ular tomonidan ishchilar, ayniqsa, zavod va fabrikalarda ishlab pul topayotganlar uchun chidasa bo'ladigan darajadagi uy-joy va maishiy sharoit yaratishga mablag' ajratmasliklarini oldindan belgilab bergan edi.

Shu munosabat bilan mustamlakaning tub aholisiga aslida xayrixoh bo'lmagan tadqiqotchilar V.V. Zafskaya hamda K.A. Aleksander: “Ishchilar uchun chinakam kazarmalar umuman yo'q, ishchilar

zavod yaqinida yoki zavodning o'zida, yoxud shu yerda joylashgan katta bo'lmagan bostirmalarda yashashadi; uchinchi holatda ular o'lka va viloyatlar iqlimi yilning katta qismida qulay bo'lgani uchun butunlay ochiq havoda istiqomat qiladilar. Ko'pincha tubjoy aholining shunday yashashi kuzatiladi", — deb xolislik bilan yozganlar [20].

XULOSA

Mustamlaka ma'muriyati tub aholidan ishlov beriladigan yerlarni hamda yaylovlarni metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarni joylashtirish, davlat yer fondini vujudga keltirish, buyuk knyazlar imeniyalari uchun yerlarni mustamlakachilarcha tortib olish amaliyotini asosan kuch bilan keng qo'lladi. Sanoatchilar, banklar va savdo shirkatlari hamda Rossiya firmalarining manfaatli ishtiroki bilan dastlabki yigirma-o'ttiz yil ichida o'lka va viloyatlar qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqli universal xususiyati jiddiy ravishda o'zgartirilib, Markaziy Yevropa to'qimachilik va yengil sanoatiga bo'ysundirilgan xomashyoga, eng avvalo paxtaga ixtisoslashtirildi. Paxta yakkahokimligi o'rnatildi, tub qishloq aholisi orasida kam yerli va yersizlar soni keskin ko'paydi. Aholining kambag'allashuvi esa chorizm mustamlakachilik siyosatining eng jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlaridan biri bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston SSR tarixi: 4 tomlik. T. 2. — Toshkent, 1968. — 524 b.
2. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. — Т.: Фан, 1973. — С. 31.
3. Ziyayev X. O'zbekiston paxtachiligi tarixidan. — Toshkent, 1980. — B. 18.
4. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. — Т.: Фан, 1973. — С. 33.
5. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. — Т.: Фан, 1973. — С. 29.
6. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. — Т.: Фан, 1973. — С. 30.
7. Гирс Ф.К. Отчёт о состоянии Туркестанского края. — СПб., 1883. — С. 112.
8. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. — Т.: Фан, 1973. — С. 35.
9. O'zRMA, I-1 jamg'arma, 16-ro'yxat, 637-ish, 5-varaq.
10. O'zMA, I-16 jamg'arma, 1-ro'yxat, 755-ish, 5–8 varaqlar.
11. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. — Т.: Фан, 1973. — С. 70.
12. O'zRMA, I-90 jamg'arma, 1-ro'yxat, 8-ish, 13–14 varaqlar.
13. O'zRMA, I-90 jamg'arma, 1-ro'yxat, 6-ish, 14–17 varaqlar.
14. Обзор состояния Туркестанского края за 1916 год (таблицы). — Тошкент, 1917. — XXVII жадвал.
15. Мельникова Т.С. Формирование промышленных кадров в Узбекистане. — Ташкент: Госиздат УзССР, 1956. — С. 21.
16. O'zRMA, I-41 jamg'arma, 1-ro'yxat, 219-ish, 19-varaq.
17. O'zRMA, I-41 jamg'arma, 1-ro'yxat, 219-ish, 130-varaq.
18. O'zRMA, I-41 jamg'arma, 1-ro'yxat, 115-ish, 1–91 varaqlar.
19. O'zRMA, I-1 jamg'arma, 15-ro'yxat, 354-ish, 56-varaq.
20. Зафская В.В., Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. — СПб., 1915. — С. 57.